



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
<i>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna</i>	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
<i>Alikulov Samar Abdurashidovich</i>	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
<i>Karimova Shaxnoza Uktamovna</i>	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
<i>Ruziyeva Barno Yadgarovna</i>	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
<i>Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li</i>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
<i>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</i>	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
<i>Matmuratova Nasiba Azatovna</i>	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
<i>Pulatov Abdulla</i>	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
<i>Nazarov Aziz Avazovich</i>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
<i>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</i>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
<i>Omonova Nafisa Qahramon qizi</i>	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
<i>Ahrorova Asila</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
<i>Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</i>	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI	212
<i>Tursunov Rasul Tairovich</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	218
<i>Эргашева Феруза Насруллаевна</i>	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN	226
<i>Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna</i>	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
<i>Musadjanova Nargiza Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI	238
<i>Saodat Sadriddinova</i>	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	243
<i>Saida Xabibullayeva</i>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLİYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSİYALASH VA MUQOBIL MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLIIYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLİYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI	316
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
EKSPORT IMKONIYATLARI VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH.....	320
Safarova Muxabbat Radjabovna	
IJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI O'SISHI DINAMIKASI VA LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	324
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....	331
Kushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI MHXS GA O'TKAZISHDA TRANSFORMATSIYA REJASINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI.....	339
G'afforov Ithomjon Ilyosjonovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVINING IQTISODIY MEKANIZMLARI	343
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI	351
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTITSIYA JALB QILISHNING BELARUS TAJRIBASI	357
Abduraxmanov Adham Raxmatullayevich	
BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI AMALIYOTLARINI JORIY ETISHDA XULQ-ATVOR OMILLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI	362
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich	



BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI AMALIYOTLARINI JORIY ETISHDA XULQ- ATVOR OMILLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d (PhD)

ORCID: 0000-0002-6429-2124

E-mail: aaabdusame@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini (BQXA) fermer xo'jaliklari tomonidan qabul qilish va qo'llashga ta'sir etuvchi xulq-atvor omillarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tavakkalchilikka munosabat, sabrlik (vaqt afzalligi), ijtimoiy normalar va shaxsiyat xususiyatlari kabi xulq-atvor omillarining BQXAlarni qabul qilishdagi roli o'rganilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (yoshi, ta'lim, tajriba) va tuzilmaviy omillar (yer maydoni, moliyaviy imkoniyat) bilan birgalikda xulq-atvor omillari fermerlarning qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistondagi qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari, xulq-atvor omillari, tavakkalchilik, sabrlik, ijtimoiy normalar.

Abstract. This article is devoted to a theoretical and practical analysis of the behavioral factors influencing the adoption and implementation of sustainable agricultural practices (SAPs) by farms. The study examines the role of behavioral factors such as risk attitude, patience (time preference), social norms, and personality traits in the adoption of SAPs. The literature review shows that, along with socio-demographic characteristics (age, education, experience) and structural factors (land size, financial capacity), behavioral factors play an important role in farmers' decision-making processes. The research findings justify the need to take behavioral economics approaches into account in promoting the sustainable development of agriculture in Uzbekistan.

Key words: sustainable agricultural practices, behavioral factors, risk, patience, social norms.

Аннотация. Данная статья посвящена теоретическому и практическому анализу поведенческих факторов, влияющих на принятие и применение устойчивых сельскохозяйственных практик (УСП) фермерскими хозяйствами. В исследовании рассматривается роль таких поведенческих факторов, как отношение к риску, терпеливость (временные предпочтения), социальные нормы и личностные характеристики, в процессе принятия УСП. Анализ литературы показывает, что наряду с социально-демографическими показателями (возраст, образование, опыт) и структурными факторами (размер земельного участка, финансовые возможности), поведенческие факторы играют важную роль в процессе принятия решений фермерами. Результаты исследования обосновывают необходимость учета подходов поведенческой экономики в обеспечении устойчивого развития сельского хозяйства в Узбекистане.

Ключевые слова: устойчивые сельскохозяйственные практики, поведенческие факторы, риск, терпеливость, социальные нормы.

KIRISH

Qishloq xo'jaligida yerlarning unumdorligini, sohada mahsulot yetishtiruvchilarning samaradorligini oshirish, umuman qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun tarmoqqa yangi innovatsion texnologiyalar, xususan barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini jalb qilish, ularni qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, umumiy ichki mahsulotning muhim qismini tashkil etadi. Sohada suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va sho'rlanish kabi ekologik muammolar yildan-yilga kuchayib bormoqda. Mazkur muammolarga barham berish uchun hukumat tomonidan bir qator barqaror



qishloq xo'jaligi dasturlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, innovatsion texnologiyalarni fermerlar tomonidan qabul qilish sur'ati hamon kutilgan darajada emas.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fermerlarning barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini (BQXA) qabul qilishi nafaqat moliyaviy va institutsional omillarga, balki ularning xulq-atvor xususiyatlariga ham bog'liqdir. Xulq-atvor iqtisodiyoti sohasidagi so'nggi tadqiqotlar tavakkalchilikka munosabat, sabrlik va ijtimoiy normalar kabi omillarning qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynashini isbotlagan (Dessart va boshqalar, 2019). Ushbu maqola xulq-atvor omillarining BQXAlarni qabul qilishdagi nazariy asoslarini bayon etish, xalqaro adabiyotlardagi empirik dalillarni tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida amaliy xulosalar chiqarishni maqsad qilib qo'ygan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etishda xulq-atvor omillarining o'rni so'nggi yillarda agrar iqtisodiyot, atrof-muhit boshqaruvi va rivojlanish siyosati doirasida alohida tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, fermerlarning qarorlari faqat texnologiyaning iqtisodiy samaradorligi bilan emas, balki ularning xavfga munosabati, vaqt afzalligi, ijtimoiy me'yorlarga bo'lgan sezgirligi, gender xususiyatlari, institutsional muhitga ishonchi va subyektiv qarashlari bilan ham chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, Acharya 2006-yilda barqaror qishloq xo'jaligini faqat ishlab chiqarish tizimi emas, balki qishloq aholisi turmush darajasi, resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi kompleks yondashuv sifatida talqin qiladi. Muallifning fikricha, barqarorlikka erishish uchun texnik choralar bilan bir qatorda inson omilini, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining qaror qabul qilish mantiqini chuqur anglash zarur.

Fermerlarning barqaror amaliyotlarni qabul qilishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish borasida Begho, Glenk, Anik va Eory 2022-yilda o'tkazgan tizimli sharh muhim ahamiyat kasb etadi. Ular fermerlar tomonidan barqaror ekin yetishtirish amaliyotlarining qabul qilinishi ko'plab o'zaro bog'liq omillar, jumladan, xo'jalik xususiyatlari, bilim va axborot darajasi, iqtisodiy rag'batlar, siyosiy institutlar hamda psixologik omillar bilan belgilanishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv xulq-atvor omillarini alohida emas, balki iqtisodiy va institutsional sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Xuddi shu yo'nalishda Yoder, Ward, Dalrymple, Spak va Lave 2019-yilda tabiat-inson tizimlarida konservatsion amaliyotlar qabul qilinishiga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib, mavjud ishlarning katta qismi iqtisodiy va strukturaviy omillarga urg'u berishini, biroq ijtimoiy-psixologik determinantlar ko'pincha yetarli chuqurlikda o'rganilmayotganini ta'kidlaydi. Bu esa xulq-atvor iqtisodiyoti vositalarini agrar siyosat bilan integratsiyalash zaruratini kuchaytiradi.

Xulq-atvor omillarini siyosatga yo'naltirilgan tarzda sharhlagan eng muhim manbalardan biri Dessart, Barreiro-Hurlé va van Bavelning 2019-yildagi tadqiqotidir. Mualliflar fermerlar tomonidan barqaror dehqonchilik amaliyotlarini qabul qilish jarayonida munosabatlar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, o'zini-o'zi samarali his etish, riskni qabul qilish darajasi va odatlarning muhim o'rin tutishini asoslab beradi. Ularning xulosasiga ko'ra, fermer qarori har doim ham "to'liq ratsional" modelga bo'ysunmaydi; aksincha, ko'plab qarorlar noaniqlik sharoitida, tajriba, ijtimoiy taqlid va odatiy xatti-harakatlar asosida shakllanadi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot barqaror qishloq xo'jaligi siyosatini ishlab chiqishda faqat subsidiyalar yoki texnik ko'mak bilan cheklanmasdan, xulq-atvorni boshqaruvchi yumshoq mexanizmlarni ham qo'llash lozimligini ko'rsatadi.

Fermerlarning niyati va real xatti-harakati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda Zeweld, Van Huylenbroeck, Tesfay va Speelman 2017-yilda kichik xo'jalik yurituvchilarning barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlariga nisbatan xulqiy intilishlarini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fermerning ma'lum amaliyotni joriy etish niyati uning ekologik munosabatlari, ijtimoiy bosimni qanday qabul qilishi va ushbu amaliyotni boshqarishga qodir ekaniga bo'lgan ishonchi bilan bevosita bog'liq. Bu holat rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasining agrar sohada ham yuqori izoh berish quvvatiga ega ekanini tasdiqlaydi. Keyingi bosqichda Zeweld, Van Huylenbroeck, Tesfay, Azadi va Speelman 2020-yilda Shimoliy Efiopiya misolida barqaror amaliyotlar nafaqat ekologik risklarni kamaytirishi, balki yashash vositalarini yaxshilashini empirik jihatdan ko'rsatadi. Demak, fermer uchun xulqiy rag'bat faqat "tabiatni asrash" emas, balki daromad, xavfsizlik va hayot sifati bilan bog'liq kutilmalardan ham oziqlanadi.

Risk va vaqt afzalligi barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etishdagi asosiy xulq-atvor determinantlaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Le Cotty, Maître d'Hôtel, Soubeyran va Subervie 2018-yilda Burkina-Faso sharoitida o'g'itdan foydalanish qarorlarini tahlil qilib, xavfdan qochish darajasi yuqori bo'lgan fermerlar ko'pincha noaniq natijali innovatsion qarorlardan tiyilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, vaqt afzalligi kuchli bo'lgan, ya'ni uzoq muddatli foydadan ko'ra qisqa muddatli natijani ustun qo'yadigan xo'jaliklar resurs talab qiluvchi barqaror texnologiyalarni qabul qilishga nisbatan sustroq bo'ladi. Mehar, Yamano va Panda 2017-yilda Sharqiy Hindistonda guruch navlarini tanlash jarayonini o'rganib, gender, risk va vaqt afzalliklari fermer qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Ularning tadqiqoti ayniqsa xulq-atvor omillarining gender bilan kesishuvchi xarakterini ochib beradi: erkak va ayol fermerlarning texnologik



tanlovlari bir xil iqtisodiy sharoitda ham turlicha shakllanishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligi siyosatini "bitta vosita hamma uchun" tamoyili asosida emas, balki differensial yondashuv asosida ishlab chiqish kerakligini ko'rsatadi.

Texnologiya qabul qilinishi bo'yicha meta-tahlillar ham xulq-atvor omillarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ruzzante, Labarta va Bilton 2021-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi texnologiyalarining qabul qilinishi bo'yicha empirik adabiyotlarni umumlashtirib, ta'lim, axborotga kirish, institutsional xizmatlar, kredit imkoniyatlari bilan bir qatorda fermerning qaror qabul qilish xususiyatlari va innovatsiyaga nisbatan individual ochiqligi muhim ekanini qayd etadi. Xuddi shunga yaqin xulosani Arslan, Floress, Lamanna, Lipper va Rosenstock 2022-yildagi Sahroi Kabirdan janubiy Afrika bo'yicha meta-tahlilida ham ilgari suradi. Ularning natijalariga ko'ra, texnologiya qabul qilinishi ko'pincha ko'p omilli jarayon bo'lib, bunda iqtisodiy foyda haqidagi kutishlar, ijtimoiy tarmoqlar, maslahat xizmatlari va uy xo'jaligi qarorlarining ichki dinamikasi birgalikda ishlaydi. Bu tadqiqotlar barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari bo'yicha qarorlarni tushuntirishda oddiy iqtisodiy rentabellik modeli yetarli emasligini aniq ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan ayrim barqaror texnologiyalarning real natijadorligi haqida dalillar ham mavjud. Aryal, Mehrotra, Jat va Sidhu 2015-yilda Hindistonning shimoli-g'arbiy Hind-Gang tekisliklarida lazerli yer tekislash texnologiyasining ta'sirini baholab, ushbu usul resurslardan samaraliroq foydalanish, hosildorlik va suv tejamkorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bunday natijalar fermerlar uchun barqaror amaliyotlarning iqtisodiy foydasini kuchaytiradi. Biroq foyda mavjud bo'lishining o'zi amaliyot avtomatik ravishda qabul qilinadi degani emas. Aynan shu yerda xulq-atvor omillarining amaliy ahamiyati namoyon bo'ladi: agar fermer texnologiyani murakkab, xavfli yoki o'z imkoniyatidan tashqarida deb hisoblasa, hatto uning iqtisodiy afzalligi aniq bo'lsa ham qabul qilish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.

So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi tadqiqotlar yanada chuqurlashib, omillar sinteziga o'tgan. Madin, Nelson, Sanderson va Moley 2025-yilda qishloq hududlaridagi fermerlar o'rtasida barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni umumlashtirib, iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va xulq-atvor omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro ta'sir qiluvchi tizim sifatida ishlashini qayd etadi. Ularning tahlili ayniqsa "ishonch", "tajribaga tayanuvchi qaror", "ijtimoiy o'rganish" va "fermerning o'z kuchiga ishonchi" kabi ko'rsatkichlarning siyosat va maslahat tizimlari orqali shakllantirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu xulosa nazariy jihatdan xulq-atvor iqtisodiyoti, amaliy jihatdan esa agrar kengaytirish xizmatlari, trening va rag'batlantirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini anglatadi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etishda xulq-atvor omillari ikki tomonlama ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan ular fermer qarorlarini klassik iqtisodiy ratsionallik doirasidan tashqariga olib chiqib, risk, vaqt, ijtimoiy ta'sir, qadriyat va niyat kabi omillarni tahlilga kiritadi. Amaliy jihatdan esa ular qishloq xo'jaligi siyosati, maslahat xizmati, subsidiya mexanizmlari va innovatsion dasturlarni yanada aniqroq yo'naltirish imkonini beradi. Shunday ekan, barqaror qishloq xo'jaligiga oid strategiyalar ishlab chiqishda fermerni faqat resurs yetishmovchiligi sharoitida harakat qiluvchi ishlab chiqaruvchi emas, balki murakkab xulq-atvor motivlariga ega qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida baholash ilmiy va amaliy jihatdan eng to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli adabiyotlar sharhiga asoslanadi. Tanlangan maqolalar BQXA, xulq-atvor iqtisodiyoti va fermerlar xulq-atvori mavzulariga oid bo'lib, empirik ma'lumotlarga asoslangan nufuzli ilmiy jurnallarda nashr etilgan asarlardan iborat. Tahlil davomida turli mamlakatlarda, asosan rivojlanayotgan davlatlar misolida olib borilgan tadqiqotlar natijalari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

BQXAlarni qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar tadqiqotchilar tomonidan bir necha toifalarga ajratilgan: (1) ijtimoiy-demografik omillar (yoshi, ta'lim, tajriba); (2) tuzilmaviy omillar (yer maydoni, moliyaviy imkoniyat); (3) institutsional omillar (maslahat xizmatlari, davlat qo'llab-quvvatlashi); (4) atrof-muhit omillari; va (5) xulq-atvor omillari.

Ko'pgina tadqiqotlarda ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarning ta'siri kuchsiz yoki barqaror emas ekanligi qayd etilgan (Begho va boshqalar, 2022; Ruzzante va boshqalar, 2021). Zamonaviy adabiyotlar iqtisodiy, institutsional va xulq-atvor omillari hisobga olingan sharoitda ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar kamdan-kam hollarda asosiy hal qiluvchi omil bo'lishini ko'rsatadi (Madin va boshqalar, 2025).

Xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan fermerlarning qaror qabul qilishiga ta'sir etuvchi eng muhim ko'rsatkichlar tavakkalchilikka munosabat va sabrlik (vaqt afzalligi) hisoblanadi. Dessart va boshqalar (2019) o'z meta-tahlillarida xulq-atvor omillarining BQXAlarga ta'sirini keng muhokama qilishgan. Olimlar o'zgarishlarga qarshilik fermerlarning barqarorroq amaliyotlarni qabul qilmasligining asosiy sababi sifatida ta'kidlashadi.



Zeweld va boshqalar (2020) Shimoliy Efiopiya misolida tavakkalchilikdan qo'rqmaydigan fermerlarda BQXAlarni qo'llashga moyillik yuqori ekanligini aniqlashgan. Tavakkalchilik bilan birgalikda, fermerlarning sabrlik darajasi ham BQXAlarni qo'llashga ta'sir qiladi. Le Cotty va boshqalar (2018) Burkina-Faso misolida sabrsiz fermerlar yerlarining kamroq qismini o'g'it talab qiladigan ekinlarga sarflashini va kam miqdorda o'g'it sotib olishini aniqlashgan. Mehar va boshqalar (2017) esa sabr-toqatli va tavakkalchilikka moyil bo'lgan fermerlarda iqlim o'zgarishiga chidamli navlarni qo'llashga xohish yuqori bo'lishini ko'rsatgan.

Ijtimoiy normalar ham fermerlarning BQXAlarni qo'llash qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar bir-biriga yaqin joylashgan fermerlar BQXAlarni, xususan organik dehqonchilikni qabul qilish tendensiyasini ko'rsatgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim almashish va tajriba kuzatish BQXAlarning tarqalishini tezlashtirishi mumkin (Yoder va boshqalar, 2019).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tavakkalchilikdan qo'rqmaydigan fermerlar yangi texnologiyalarni tezroq qabul qiladi. Bu holat ayniqsa kapital talab qiladigan va dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori bo'lgan BQXAlar (masalan, tomchilatib sug'orish, lazerli yer tekislash) uchun yaqqol namoyan bo'ladi (Arslan va boshqalar, 2022). O'zbekiston sharoitida sug'orish suvi tanqisligi kuchayib borayotgan bir paytda suvni tejovchi texnologiyalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq fermerlarning dastlabki investitsiya xarajatlaridan qo'rqishi va texnologiyaning ish bermasligidan xavotirlanishi bunday texnologiyalarni joriy qilishni sekinlashtirishi mumkin.

Vaqt afzalligi, ya'ni fermerlarning hozirgi daromadlarni kelajak daromadlariga qiyoslash tarzidagi munosabati, uzoq muddatda samara beradigan BQXAlarni qabul qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tuproq unumdorligini oshirish, daraxt ekish va sug'orish infratuzilmasi kabi investitsiyalar bir necha yildan so'ng samara beradi. Sabrsiz fermerlar bunday investitsiyalardan voz kechishi mumkin (Le Cotty va boshqalar, 2018).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fermerlar ko'pincha yangi amaliyotlarni qabul qilmaydi. Bu faqat moliyaviy sabablarga ko'ra emas, balki xulq-atvoriy sabablar bilan ham bog'liq. Mavjud dehqonchilik usullariga ko'nikish va "yangi narsa sinab ko'rish"dan qo'rqish BQXAlarning tarqalishini sekinlashtiradi (Dessart va boshqalar, 2019).

O'zbekistonda ko'plab fermerlar uzoq yillardan beri qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy dehqonchilik usullarini qo'llashda davom etmoqda. Xulq-atvor o'zgarishini rag'batlantirish uchun shunchaki ma'lumot berish yetarli emas, balki ilg'orlar tajribasi, fermerdan-fermarga o'rganish (farmer field schools) va ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim tarqatish samaraliroq yondashuv hisoblanadi. Ijtimoiy o'rganish va tengdoshlar ta'siri BQXAlarni qabul qilishning muhim omili sifatida ko'p bora tasdiqlangan. Qo'shni fermerning muvaffaqiyatli tajribasi boshqa fermerlarning yangi texnologiyani sinab ko'rishga bo'lgan tayyorligini oshiradi (Yoder va boshqalar, 2019). O'zbekistondagi "mahalla" tizimi ijtimoiy normalar va bilim tarqatishda tabiiy platforma vazifasini o'tashi mumkin. Mahalla faollarini BQXAlar bo'yicha o'qitish va ular orqali amaliy tajribani tarqatish o'ziga xos va samarali yondashuv bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qabul qilishda xulq-atvor omillarining nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilgan. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tavakkalchilikka munosabat va sabrlik BQXAlarni qabul qilishda ijtimoiy-demografik omillardan ko'ra muhimroq rol o'ynaydi. Shuningdek, status-kvo tarafdoshligi va o'zgarishlarga psixologik qarshilik fermerlarning yangi texnologiyalarni qabul qilmasligining asosiy sabablaridan biridir. Ijtimoiy normalar, tengdoshlar ta'siri ham BQXAlarning tarqalishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Acharya, S. S. (2006). Sustainable agriculture and rural livelihoods. *Agricultural Economics Research Review*, 19, 205–218.
2. Arslan, A., Floress, K., Lamanna, C., Lipper, L., & Rosenstock, T. S. (2022). A meta-analysis of the adoption of agricultural technology in Sub-Saharan Africa. *PLOS Sustainability and Transformation*, 1(7).
3. Aryal, J. P., Mehrotra, M. B., Jat, M. L., & Sidhu, H. S. (2015). Impacts of laser land leveling in rice–wheat systems of the north–western Indo-Gangetic plains of India. *Food Security*, 7(3), 725–738.
4. Begho, T., Glenk, K., Anik, A. R., & Eory, V. (2022). A systematic review of factors that influence farmers' adoption of sustainable crop farming practices. *Journal of Sustainable Agriculture and Environment*, 1, 149–160.
5. Dessart, F. J., Barreiro-Hurlé, J., & van Bavel, R. (2019). Behavioural factors affecting the adoption of sustainable farming practices: a policy-oriented review. *European Review of Agricultural Economics*.
6. Le Cotty, T., Maître d'Hôtel, E., Soubeyran, R., & Subervie, J. (2018). Linking risk aversion, time preference and fertiliser use in Burkina Faso. *The Journal of Development Studies*, 54(11), 1991–2006.
7. Madin, M., Nelson, K., Sanderson, M., & Moley, L. (2025). A synthesis of factors influencing sustainable agriculture practices adoption among rural farmers. *Journal of Rural Studies*, 120, 103853.
8. Mehar, M., Yamano, T., & Panda, A. (2017). The role of gender, risk, and time preferences in farmers' rice variety selection in eastern India. *Asian Journal of Agriculture and Development*, 14(1), 17–36.



9. Ruzzante, S., Labarta, R., & Bilton, A. (2021). Adoption of agricultural technology in the developing world: A meta-analysis of the empirical literature. *World Development*, 146, 105599.
10. Yoder, L., Ward, A. S., Dalrymple, K., Spak, S., & Lave, R. (2019). An analysis of conservation practice adoption studies in agricultural human-natural systems. *Journal of Environmental Management*, 236, 490–498.
11. Zeweld, W., Van Huylenbroeck, G., Tesfay, G., & Speelman, S. (2017). Smallholder farmers' behavioural intentions towards sustainable agricultural practices. *Journal of Environmental Management*, 187, 71–81.
12. Zeweld, W., Van Huylenbroeck, G., Tesfay, G., Azadi, H., & Speelman, S. (2020). Sustainable agricultural practices, environmental risk mitigation and livelihood improvements: Empirical evidence from Northern Ethiopia. *Land Use Policy*, 95, 103799.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>